O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI

# TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2022- YIL YANVAR-IYUL*
*(DASTLABKI MA’LUMOT)*



Sanoat **statistikasi boshqarmasi**
**Tel.: 71-202-80-46**

# Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-iyul oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022-yilning yanvar-iyul oylarida shahar korxonalari tomonidan 56,0 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 107,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (80,4 %)ni hamda ishlab chiqarish hajmi 45,0 trln. so‘mni tashkil etdi.




***B** – Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C** – Ishlab chiqaradigan sanoat **D** – Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E** – Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 19,7 % ga o’sishi kuzatildi. Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 2,4 % ga o‘sishi hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash 11,3 %, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda – 16,0 % ga, pasayish kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,3 trln. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 14,9 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**
*(yanvar-iyul oylarida, % da)*







**Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*

**Gaz kondensati**




**Tabiiy gaz**




**Neft**




**Shag‘al**




**Chaqiq tosh**



## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar- iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Neft,** *ming t.* | 379 | 378,3 | -0,7 |
| **Tabiiy gaz,** *mln. kub.m.* | 20 802,9 | 20 855,6 | 52,7 |
| **Gaz kondensati,** *ming t.* | 433,1 | 428,6 | -4,5 |
| **Chaqiq tosh** *t.* | 300 565,6 | 456 002,0 | 155 436,4 |
| **Shag’al** *t.* | - | | |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 45,0 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,4 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, (yanvar-iyul oylarida, % da)



O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 8,0 % ni (2021- yilning yanvar-iyul oylarida – 12,5 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 20,4 % (20,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 29,6 % (31,4 %) va quyi texnologiyalisi – 42,0 % (35,8 %)ni tashkil etdi.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 21,8 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 91,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 12,8 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 152,5 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 6,4 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,5 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 21,3 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 141,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,4 % (2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 98,8 %)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2022- yilning yanvar-iyul oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 7849,6 tonna makaron va shunga o’xshash un mahsulotlari ( 21,5 % ga oshgan), 39,0 ming tonna kunjara va qattiq chiqindilar (41,6 % ga oshgan), 1 192 mln dona tamaki mahsulotlari (20,2 %) hamda 7,3 ming tonna margarin va yormalar (15,1 % ga kam) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

### O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

#### O‘simlik yog‘l (tozalangan)




#### Margarin va yormalar




#### Yumshoq bug‘doy va spelta uni




#### Pivo




#### Aroq




#### Uzum vinosi




#### Tamaki mahsulotlari




#### Paxta kalavasi



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Yumshoq bug'doy va spelta uni,** *ming tonna.* | 49,6 | 34,9 | 14,7 |
| **Paxta kalavasi,** *ming tonna.* | 5,8 | 4,5 | -1,3 |
| **Margarin va yormalar** *ming tonna.* | 8,6 | 7,3 | -1,3 |
| **Pivo –** *mln litr* | 47,9 | 49,5 | 1,6 |
| **Traktorlar -** *dona* | 173,0 | 97 | -76 |
| **Sovutgich va muzlatgichlar -** *ming dona* | 313,0 | 398,3 | 85,3 |
| **Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar,** t. | 10 033 | 9 132 | -901 |
| **Tamaki mahsulotlari,** *mln. dona* | 991,8 | 1 192,0 | 200,2 |

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-iyul oylarida qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarish sanoatida, jami 97 dona traktorlar ishlab chiqarildi, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 43,9 % ga kamaygan.

## Toshkent shaharda traktor ishlab chiqarish sanoati,
*yanvar-iyul oylarida*

***miqdori dona***




***o'sish sur'ati, % da***




## Toshkent shaharda yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati
*yanvar-iyul oylarida, dona*



"Volkswagen Caddy"




## Metallurgiya sanoati
*(yanvar-iyul)*



***FHI % da***




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida metallurgiya sanoati ulushi 10,1 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 51,2 % ga ko'paygan bo'lsa,

2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 12,8 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 152,5 % va ishlab chiqarish hajmi 7155,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(yanvar-iyul oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 4,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 14,3 % ga ko’paygan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,4 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 7,4 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 1982,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



**FHI % da**




## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-iyul oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 9,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 93,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,4 %, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 22,3 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 5846,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



**FHI % da**



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-iyul oylarida)*

**FHI % da**






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 19,3 % ga oshgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,6 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 191,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 5909,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-iyul oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-iyul oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,3 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 120,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 3,4 % ga kamaygan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 2849,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



**FHI % da**



## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-iyul oylarida)*




2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % ni, fizik hajm indeksi esa 93,2 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi 110,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 643,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar-iyul oylarida)*

2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 90,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni, fizik hajm indeksi 9,3 % ga kamaydi, ishlab chiqarish hajmi esa 1380,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

*(yanvar-iyul oylarida)*










2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga koʻra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 50,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 2,4 martaga ko’paygan boʻlib, ishlab chiqarish hajmi 202,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

*(yanvar-iyul oylarida)*









2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga koʻra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 98,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,5 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 143,4 % ni, hamda ishlab chiqarish hajmi
1964,0 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*(yanvar-iyul oylarida)*

2021- yilning yanvar-iyul oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 98,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni, fizik hajm indeksi 105,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1663,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



*FHI % da*




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*yanvar-iyul oylarida*

**trln. so‘m**







***FHI % da***

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,4 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (4,0 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,4 % ga ko‘payganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**
*(yanvar-iyul oylarida, % da)*




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 189,1 | 253,6 | 64,5 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 8024,4 | 7447,7 | -576,7 |
| **Elektroenergiya uzatish bo’yicha xizmatlar,** *mln so ‘m.* | 437,3 | 471,0 | 33,8 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-iyul oylarida*




Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,4 trln.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

*(yanvar-iyul oylarida, % da)*




| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-iyul | 2022- yil yanvar-iyul | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd.so‘m* | 51,4 | 93,8 | 42,4 |
| **(Xavfli bo‘lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna** | 252,6 | 183,1 | -69,5 |
| **Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta’minlash, mlrd. so‘m** | 110,9 | 154,4 | 43,5 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo‘lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo‘yicha xizmatlar 27,5 % ga kamaydi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta’minlash 39,3 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo’yicha xizmatlar 82,5 % ga o’shish kuzatildi.

## Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 26,0 trln.so‘mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 143,6 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 46,3 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,4 % (2021-yil yanvar-iyul oylarida 5,7 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to‘g‘ri kelib 18,4 % ni, shuningdek, Bektemir tumani 16,7 % ni, Sirg’ali tumani 13,1 % ni hamda Chilonzor tumani 9,4 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Yunusobod (182,1 %), Shayxontoxur (180,1 %), Bektemir (178,6 %), Yakkasaroy (168,5 %), Yangihayot (166,5 %), Mirobod (163,2 %) tumanlarida hamda Chilonzor tumanida (149,1 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022-yilning yanvar-iyul oylarida*

| Hudud | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | 25 952,2 | 100 | 143,6 |
| **Uchtepa** | 1173,2 | 4,5 | 138,4 |
| **Bektemir** | 4321,8 | 16,7 | 178,6 |
| **Yunusobod** | 1319,6 | 5,1 | 182,1 |
| **Mirzo Ulug’bek** | 1100,0 | 4,2 | 145,2 |
| **Mirobod** | 1686,9 | 6,5 | 163,2 |
| **Shayxontoxur** | 855,4 | 3,3 | 180,1 |
| **Olmazor** | 1966,4 | 7,6 | 122,6 |
| **Sirg’ali** | 3391,8 | 13,1 | 126,2 |
| **Yakkasaroy** | 1421,3 | 5,5 | 168,5 |
| **Yashnobod** | 4785,0 | 18,4 | 115,6 |
| **Yangihayot** | 1499,7 | 5,8 | 166,5 |
| **Chilonzor** | 2431,2 | 9,4 | 149,1 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to‘g‘ri kelib, 23,9 % shuningdek, Chilonzor 11,7 %, Bektemir tumani 8,7 % ni, Mirobod tumani 8,2 % ni tashkil etdi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning yanvar-iyul oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Toshkent shahri | 14 380,9 | 100 | 142,4 |
| Uchtepa | 629,7 | 4,4 | 153,1 |
| Bektemir | 1258,1 | 8,7 | 125,6 |
| Yunusobod | 794,6 | 5,5 | 255,2 |
| Mirzo Ulug’bek | 862,9 | 6,0 | 150,4 |
| Mirobod | 1176,6 | 8,2 | 131,1 |
| Shayxontoxur | 705,6 | 4,9 | 236,4 |
| Olmazor | 902,3 | 6,3 | 116,9 |
| Sirg’ali | 991,1 | 6,9 | 127,0 |
| Yakkasaroy | 883,2 | 6,1 | 144,1 |
| Yashnobod | 3433,3 | 23,9 | 122,2 |
| Yangihayot | 1062,3 | 7,4 | 166,4 |
| Chilonzor | 1681,1 | 11,7 | 169,7 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnabod tumaniga to‘g‘ri kelib 23,9 % ni, shuningdek, Chilonzor tumani 11,7 % ni, Bektemir tumani esa 8,7 % ni tashkil etdi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning yanvar-iyul oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Toshkent shahri | 10690,8 | 100 | 153,9 |
| Uchtepa | 543,5 | 5,1 | 124,5 |
| Bektemir | 3063,7 | 28,7 | 216,0 |
| Yunusobod | 468,2 | 4,4 | 135,1 |
| Mirzo Ulug’bek | 237,1 | 2,2 | 129,0 |
| Mirobod | 510,3 | 4,8 | 376,2 |
| Shayxontoxur | 111,6 | 1,0 | 85,8 |
| Olmazor | 1064,2 | 10,0 | 127,9 |
| Sirg’ali | 2346,3 | 21,9 | 127,5 |
| Yakkasaroy | 538,1 | 5,0 | 233,2 |
| Yashnobod | 620,3 | 6,8 | 124,8 |
| Yangihayot | 437,3 | 4,1 | 166,7 |
| Chilonzor | 750,1 | 7,0 | 118,3 |

# <u>Toshkent shahri  hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari</u>

*2022- yilning yanvar-iyul oylarida*

| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | **56 001,6** | **100,0** | **107,8** |
| **Uchtepa** | **1987,9** | **3,5** | **98,7** |
| **Bektemir** | **6019,0** | **10,7** | **108,8** |
| **Yunusobod** | **2550,7** | **4,6** | **112,1** |
| **Mirzo Ulug’bek** | **2853,9** | **5,1** | **98,6** |
| **Mirobod** | **4383,4** | **7,8** | **104,4** |
| **Shayxontoxur** | **3364,7** | **6,0** | **104,8** |
| **Olmazor** | **3476,8** | **6,2** | **99,3** |
| **Sirg’ali** | **6512,1** | **11,6** | **112,6** |
| **Yakkasaroy** | **3861,4** | **6,9** | **115,3** |
| **Yashnobod** | **13443,5** | **24,0** | **94,1** |
| **Yangihayot** | **2397,4** | **4,3** | **105,5** |
| **Chilonzor** | **5150,9** | **9,2** | **122,2** |

**Toshkent shahri  hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati** *% da*




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o‘sish sur’ati eng yuqori ko‘rsatkich Yunusobod (182,1 %), Shayxontohur (180,1 %), Bektemir (178,6 %) hamda Yakkasaroy tumanlarida (168,5 %) qayd etildi.

## Toshkent shahri jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Shaharda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Yashnobod tumani (shaharda sanoat ishlab chiqarish hajmining 24,0 % ) hamda Sirg’ali (11,6 %), Bektemir (10,7 %), Chilonzor (9,2 %) va Mirobod (7,8 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Yunusobod tumani (4,6 %), Yangihayot (4,3 %) hamda Uchtepa (3,5 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Bektemir (114386,9 ming so‘m), Yashnobod (47855,6 ming so‘m) hamda Sirg’ali tumanida (43329,9 ming so‘m) shaharda o‘rtacha daraja ko‘rsatkichidan (6734,7 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Shahar bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 10550,0 ming so‘mdan yuqori ko’rsatkich Bektemir tumanida – 137314,7 ming so‘mni, Sirg’ali tumanida – 32526,2 ming so‘mni, Yashnobod tumanida – 18334,1 ming so‘mni, Mirobod tumanida –11743,7 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2022- yilning yanvar-iyul oylarida, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Toshkent shahri | 19 405,0 | 8992,6 |
| Uchtepa | 6908,4 | 4077,3 |
| Bektemir | 114386,9 | 82132,3 |
| Yunusobod | 7066,3 | 3655,6 |
| Mirzo Ulug’bek | 9023,1 | 3478,0 |
| Mirobod | 29847,8 | 11486,7 |
| Shayxontohur | 9452,5 | 2403,1 |
| Olmazor | 8966,5 | 5071,4 |
| Sirg’ali | 43329,9 | 22567,8 |
| Yakkasaroy | 30955,5 | 11394,0 |
| Yashnobod | 47855,6 | 17033,4 |
| Yangihayot | 15588,8 | 9751,4 |
| Chilonzor | 19218,6 | 9071,1 |

## <u>Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi</u>

*2022- yilning yanvar-iyul oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 17,2 trln. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 30,7 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 63,9%), Yunusobod (46,1 %), Yangihayot (42,8 %) hamda Yakkasaroy (41,4 %) tumanlarida kuzatildi.






Toshkent shahar hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Yashnobod (15,7 %), Bektemir (23,2 %), Shayxontohur (26,0 %) hamda Mirobod (26,3 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Toshkent shahrida faoliyat koʻrsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

*(2022- yil 1- avgust holatiga koʻra)*

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,4 mingta sanoat korxonalari faoliyat koʻrsatmoqda, shundan 2,1 mingtasi (roʻyxatdan oʻtgan korxonalar umumiy sonining 12,9 % i) Olmazor tumanida, 2,0 mingtasi (12,2 %) Chilonzor tumaniga, 1,9 mingtasi (11,5 %) Uchtepa tumaniga, 1,7 mingtasi (10,7 %) Yunusobod tumaniga, 1,4 mingtasi (8,7 %) Shayxontohur tumaniga, 1,4 mingtasi (8,7 %) Mirzo Ulug'bek tumaniga toʻgri kelmoqda.




2022- yilning yanvar-iyul oylarida shahardada 974 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 127 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi 13,0 %) Olmazor tumanida, 107 tasi (11,0 %) Yunusobod tumanida, 105 tasi (10,8 %) Uchtepa tumanida, 94 tasi (9,7 %) Chilonzor tumanida, 93 tasi (9,5 %) Yashnobod tumanida hamda 88 tasi (9,0 %) Mirzo Ulug'bek tumanida tashkil etildi.

## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari

*2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2 102 ta), Chilonzor (1 988 ta), Uchtepa (1 883 ta), Yunusobod (1 745 ta) hamda Shayxontohur (1 420 ) tumanlarida qayd etildi.

**Toshkent shahrida eng ko‘p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi**
*(2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda)*




**Toshkent shahrida eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi**
*(2022- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda)*




2022-yilning 1-avgust holatiga ko‘ra Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (571 ta), Yangihayot (611 ta), Mirobod (942 ta), Sirg’ali (1025 ta), Yakkasaroy (1 237 ta), Yashnobod (1 406 ta), Mirzo Ulug’bek (1419),Shayxontohur (1420), Yunusobod (1745), Uchtepa (1883) tumanlarida qayd etildi.

**Sanoat statistikasi bo’limi**
*Tel.: (71) 203-88-16*